

26. Ikki xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish

Yondosh mavzu:
Narx yorlig'i

Yig'indini songa ko'paytirish,
ustun ko'rinishida ko'paytirish



1. Narx yorlig'idagi sonlarni hisoblang. Har bir yorliqda nechta to'liq o'nlik, yuzlik va minglik borligini ayting.



2. Qulay usulda hisoblang. Har bir qatordagi misollarda qanday umumiylik bor?

a) $80 + 630 + 70 + 720$;

$123 + 289 + 177 + 11$

b) $(1670 + 380) - 670$;

$(405 + 597) - 97$

d) $700 - 142 - 158$;

$(630 - 180) - 220$

e) $73 \cdot 8 + 27 \cdot 8$;

$6 \cdot 55 + 6 \cdot 45$

f) $0 \cdot (345\,900 - 17\,650)$

$(7 \cdot 18 + 19 \cdot 3 - 108) \cdot 0$

3. Ikki xonali son bir xonali songa qanday ko'paytirilishini eslang.

$$87 \cdot 6 = (80 + 7) \cdot 6 = 80 \cdot 6 + 7 \cdot 6 = 480 + 42 = 522$$

Namuna bo'yicha hisoblang.

$63 \cdot 8$

$29 \cdot 9$

$47 \cdot 6$

$42 \cdot 7$

26. Ikki xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish

Ikki xonali va bir xonali sonlarni ko'paytirish



$\begin{array}{r} 87 \\ \times 6 \\ \hline \end{array}$	Ikki xonali son ostiga bir xonali sonni yozamiz.
$\begin{array}{r} 487 \\ \times 6 \\ \hline 22 \end{array}$	$7 \text{ birl.} \cdot 6 = 42 \text{ birl.} = 4 \text{ o'nl.} 2 \text{ birl.}$ $2 \text{ birl. ni birliklar xonasiga yozamiz,}$ $4 \text{ o'nl. ni yodda tutamiz – o'nliklar ustiga yozamiz.}$
$\begin{array}{r} 5487 \\ \times 6 \\ \hline 222 \end{array}$	$8 \text{ o'nl.} \cdot 6 = 48 \text{ o'nl.}$ $48 \text{ o'nl.} + 4 \text{ o'nl.} = 52 \text{ o'nl.} = 5 \text{ yuzl.} 2 \text{ o'nl.}$ $2 \text{ o'nl. ni o'nliklar xonasiga yozamiz,}$ $5 \text{ yuzl. ni yodda tutamiz – yuzliklar ustiga yozamiz.}$
$\begin{array}{r} 5487 \\ \times 6 \\ \hline 5222 \end{array}$	5 yuzl. ni yuzlar xonasiga yozamiz.



4. Ko'paytirishni ustun ko'rinishida bajaring.

$$63 \cdot 8$$

$$29 \cdot 5$$

$$7 \cdot 19$$

$$41 \cdot 7$$

$$2 \cdot 98$$

$$8 \cdot 93$$



5. Bu yeguliklarni xarid qilish uchun qancha to'lash kerak?



14 ming so'm



19 ming so'm



6 ming so'm



6. Tenglamalarni yeching va tekshiring.

$$10 \cdot (x \cdot 30) = 20 \cdot 900$$

$$280\,000 : z = 1600 : 40$$

26. Ikki xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish



7. Buyumning narxi bir necha bor o'zgardi. Avvaliga uning narxi 16 390 so'mga oshdi, keyin 14 560 so'mga arzonlashganda, narxi 675 890 so'mni tashkil qildi. Dastlab mahsulotning narxi qancha edi?



8. Madina tovarlarning narx yorliqlarini chop etishga yordam beryapti.

a) Narx yorlig'i – bu mahsulot haqida ma'lumot yozilgan varaqa. Yorliq bo'yi 7 cm va eni 6 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'ladi. Ushbu to'g'ri to'rtburchakni daftaringizga chizing. Uning perimetri va yuzini toping.

Tovar nomi

Narxi: _____

b) Bitta sahifaga 12 ta narx yorlig'i sig'adi. 5 ta sahifada nechta yorliq chop qilsa bo'ladi?

d) Bitta peshtaxtadagi mahsulotlar uchun 60 ta narx yorlig'i ishlatiladi. 480 ta yorliq nechta peshtaxtaga yetadi?



9. Har juma kuni ba'zi do'konlarda tovarlar boshqa kunlardagiga qaraganda arzonroq sotiladi. Ba'zi oylarda 4 ta juma bor, ba'zi oylarda undan ko'proq bo'ladi. 5 ta juma keladigan oylar bir yilda nechta bo'lishi mumkin?



10. Sonlarni ustun ko'rinishida ko'paytiring va tovarlarga narx yorlig'ini osishni o'ylab topgan odamning kimligini bilib oling.

V $62 \cdot 9$

O $13 \cdot 7$

T $56 \cdot 3$

L $58 \cdot 6$

R $41 \cdot 4$

U $45 \cdot 5$

558	225	348	558	91	164	168



11. Bozordan kilogrammi 58 ming so'mdan 4 kg mol go'shti va 67 ming so'mdan 2 kg qo'y go'shti sotib olindi. Hammasi bo'lib qancha pul to'landi?